



## IQTISODIYOTNI INNAVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA AHOLI FAROVONLIGI MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Po'latov Oybek Muhiddinovich

Surxandaryo viloyati Termiz shahri

TerDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6505400>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 18-aprel 2022

Ma'qullandi: 23- aprel 2022

Chop etildi: 27- aprel 2022

### KALIT SO'ZLAR

*iqtisodiyot innovatsiya, fundamental konstruktiv, g'oya, texnologiya, strategiya, bank tizimi, moliya, valyuta*

### ANNOTATSIYA

*ushbu maqolada iqtisodiyotda innavatsion o'zgarishlar va aholining muammolari va ularning yechimi bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Iqtiyodiyotni rivojlantirish va innavatsion yangiliklarni sohada qo'llash bugungi kunning eng asosiy mavzusi bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyot nima? Innovatsiya o'zi nima? Innovatsiyaning iqtiyodiyotdagi bugungi o'rni qanchalik ahamiyatli? egan savollarga javob topamiz. Demak, iqtisodiyot bu - lotincha so'zdan olingan bo'lib, "uy"- "vomos", "nomos" - "norma", degan ma'nun anglatadi. Innovatsiya kashfiyotlar shaklida bo'lishi mumkin. Innovatsiya bu - inglizcha so'z bo'lib innovationems - yangilik ixtiro degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsiya - har qanday faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish uchun fundamental amaliy tadqiqotlar tajriba kunstruktiv ishlarning rasmiylashtirilgan natijasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasida:

"Iqtisodiyotda boshqaruva tizimi eskirgani innavatsion g'oyalarni qo'llab - quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlarni o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tadbiq etishning yo'lida to'siq bo'lmoqda" deya ta'kidlab o'tilgan. Shunday ekan bugungi kun iqtisodiyotini rivojlanirish uchun yangicha yondashuv va innavatsiya texnologiyalarni tadbiq etish lozim. Bu borada yana bir necha ishlar ham amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirish haqida harakatlar strategiyasida ham iqtisodiyot va uni rivojlantirishga doir eng muhim ishlar va yo'nalishlarni belgilab bergen edilar. Bu ustuvor yo'nalishlar mamlakatimizni ijtimoiy - iqtisodiy



rivojlanishini barqaror va ijobjiy o'sishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va uni erkinlashtirish, iqtisodiy salohiyatni yanada kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirish, eng asosiysi aholi turmush darajasini yanada kuchaytirish maqsadida so'z yuritiladi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq: Jahon banki va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan islohotlar nazarda tutilgan. Iqtisodiyotda ma'muriy – buyruqbozliklarga chek qo'yib, bu boshqaruv tizimidan yangi bozor iqtisodiyoti pul va kredit siyosatini puxta o'ylab chiqish, makroiqtisodiyot barqarorligini, iqtisodiyot o'sish sur'atlarini, ularning ko'rsatkichlarini muvozanatlashtirish, tadbirkorlikni va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish uchun shart - sharoitlar yaratishdan iborat.

Aholi o'rtasida tadbirkorlikni har tomonlana rivojlantirish, ularga kredit ajratib, yerlardan va bosh qoldirilgan joylardan tadbirkorlik ob'yekti sifatida qayta ishlab, u yerda ishlab chiqarish, fermer xo'jaligi, issiqxona sifatida foydalanish, daromat olish mumkin. Tadbirkorlarlarga qulay shart-sharoitlar yaratish va ular toki o'zining tadbirkorlik faoliyatlarini yaxshilab yo'lga qo'yguniga qadar 2 yil muddatga soliqlardan ozod etish kabi afzalliklar yaratilmoqda. Mamlakatimiz aholisini tadbirkorlikka jalb etish, ularning g'oya va loyhalarini amalga oshirish, ularga har tomonlama ko'maklashilmoqda. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun ularga imtiyoz sifatida davlat budgetidan 100 trillion so'm miqdorda mablag' ajratildi. Oilaviy tadbirkorlarga daromat topish muayyan

mehnat faoliyatiga ega bo'lish va faoliyatini kengaytirish uchun imtiyozli kreditlar berilmoqda. Kreditlar foizi kam yillik 8 foiz stavkada 3 - 6 - oylikgacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 - muddatga beriladi. 2020 - yildan hamma kreditlar AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB va "Agrobank" orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasida yillik 14 foiz stavkada beriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi bilan tizimli ishlar yuritilayotganligi munosabati bilan hozirda ishsiz aholining ko'p qatlami ish bilan ta'minlandi. Bo'sh ish o'rinnari va ularni band etish bo'yicha ham davlarning eng so'nngi innovatsion onlayn portalı "vakansiya. argos. uz" ishga tushurildi. Bu partal orqali aholi o'zi yashab turgan hududdan bo'sh ish o'rinnarni topishi va ishga kirish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Aholini sohaga jalb etish uchun "Har bir oila tadbirkor" degan loyhalar ishga tushurilmoqda. Aholining, ayniqsa yoshlarning biznes g'oya va startaplarini amalga oshirish, tadbiq etish, shakillantirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqib, "biznes inkubatorlar"ni tashkil qilish choralar ko'rilmoxda. Xotin - qizlarning tadbirkorlik tashhabbuslarini amalga oshirish, istiqbolli g'oyalarni ro'yobga chiqarish bilan aholining bandligi ta'minlanmoqda. Aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlar dasturlarga kiritib o'tildi. Shuningdek, bu yili Aholining 30 yoshgacha bo'lgan yoshlaring ishsiz qatlami bilan har bir tadbirkorga biriktirish ishlari, har bir yutuqqa erishgan va tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlarni imkoniyatlarni o'rgangan holda tajriba orttirish bilan "Ustoz -



Shogirt" an'analarini shakillantirildi. Hozirda ishsiz yoshlarni qo'llab – quvatlash ularni band etish choralar ko'rilmoxda. Yana shuni aytish kerakki, bank tizimida banklararo valuta ayrboshlash tizimida ham endi yangi onlayn platformalarga alishtirilmoqda. Bu innovatsiya aholining bevosita bank valiyutani bankning o'zidan sotib olish uchun imkoniyat yaratadi. Tavar va moliya bozorlarga erkinlik raqobatbardoshlik muhitini yaratish uni shakillantirish, tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun krng imkoniyat yaratish zarur.

Bugungi kunga kelib iqtisodiyotni rivojlantirishga doir shunday ko'plab ishlar

amalga oshirilayotgani bizning yutug'imiz desak adashmaymiz. Yutboshimiz tashabbuslari bilan iqtisodiyotga va aholining bandligiga qaratilayotgan e'tibor shu darajaga yettiki bugun xalq, aholi bunga rizolik alomatini bildirib, bugungi kuniga shukronalik keltirib, ertangi yorug' kunga umid va ishonch bilan yashamoqda. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyot tamoyili bilan biz jahon iqtisodiyoti bilan tenglashyapmiz bizning tizimdagi o'zgarishlar yangiliklar hech shubhasz jahon iqtisodiyoti sohalaridan qolishmaydi. Bugungi kunimizdagi o'zgarish yangiliklar yaratish o'z qo'limizda.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ayubov.R. Boltayeva G "O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish muammolari va yechimi.
2. A. Taniyev "Iqtisodiyot" darslik 2020 yil
3. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent 2021
4. "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi".